

MATNDA PAREMIK BIRLIKLARNING QO‘LLANILISHI

*Raximova Arofatxon G‘ulomjon qizi**FarDU magistranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada paremik birliklarning (maqol, matal, ibora, aforizm va boshqa xalq og‘zaki ijodi shakllarining) matnlardagi funksional qo‘llanilishi tahlil etiladi. Jumladan, badiiy matnlar, publitsistik chiqishlar hamda humoristik janrlarda – ayniqsa, latifalarda – paremik birliklarning obrazli fikr ifodasi, kulgi va kinoyani kuchaytiruvchi vosita sifatida ishlatilishi ko‘rsatiladi. Matn namunalari asosida paremik birliklar matnga qanday estetik va ma‘no yuklayotgani misollar bilan yoritiladi. Shuningdek, latifalari misolida bu birliklarning zamonaviy kontekstda yangi semantik qatlamlarga ega bo‘lishi ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: paremik birlik, maqol, matal, ibora, latifa, xalq og‘zaki ijodi, humoristik matn, matnshunoslik, zamonaviy kulgi

Аннотация: В данной статье рассматривается функциональное использование паремических единиц (поговорок, пословиц, фразеологизмов, афоризмов и других форм устного народного творчества) в текстах. В частности, показано, как паремические единицы используются в художественных произведениях, публицистических выступлениях и юмористических жанрах — особенно в анекдотах — как средство выразительного мышления, усиления комизма и иронии. На основе примеров из текстов раскрывается, какую эстетическую и смысловую нагрузку несут паремические единицы. Также на примере анекдотов демонстрируется, как эти единицы приобретают новые семантические слои в современном контексте.

Ключевые слова: паремические единицы, пословица, поговорка, фразеологизм, анекдот, устное народное творчество, юмористический текст, текстология, современный юмор

Xalq og‘zaki ijodining qadimiy namunalaridan hisoblangan paremiologik birliklar boshqa janrlardan o‘zining qisqa, lo‘nda, obrazli va chuqur mazmunga egaligi bilan alohida ajralib turadi. Paremiologiya- (yunoncha: paroimia – hikmatli so‘z, zarbulmasal) 1) ma‘lum bir tildagi avloddan – avlodga og‘zaki shaklda ko‘chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar; 2) muayyan tilda mavjud bo‘lgan maqol, matal kabi hikmatli so‘zlar paremalar tizimini tashkil etadi. Paremiologik birliklar orqali har bir xalqning o‘ziga xos qadimiy va boy ma‘naviyati, madaniyati, turmush tarzi, hayoti, kishilarning jamiyatga bo‘lgan munosabati, kuzatishlar va tajribalariga suyanish asnosida chiqarilgan xulosalarini ifodalovchi

ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ularini, ijobiy fazilatlarini o'zida mujassamlashgan tuyg'ulari namoyon bo'ladi. Paremlar avloddan avlodga faqat og'zaki holdagina o'tib kelganligi, xalq og'zaki ijodining mahsuli bo'lganligi uchun adabiyotshunoslikning o'rganish ob'yekti hisoblanadi, chunki ularning aksariyati ko'pincha she'riy shaklga o'xshaydi va ularda o'xshatish, antiteza, anafora, alliteratsiya, kinoya, piching kabi bir qancha tasviriy vositalar qo'llanadi. Shu bilan birga paremlar so'zlardan tuzilib, ma'lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo'lgani uchun tilshunoslikning ham o'rganish ob'yektidir. Paremlarning kelib chiqishi, tarixan rivojlanishi va ma'no xususiyatlarini o'rganuvchi paremik birliklar frazeologiya bilan chambarchas bog'liq. Paremik birliklar tilda mavjud bo'lgan turli xil barcha iboralarni o'rganadi, frazeologiya esa uning bir qismi sifatida faqat ko'chma ma'noli turg'un birikmalarni o'rganadi. Shu jihatdan ular o'zaro farqlanadi. O'rganish ob'yektining birligi, ya'ni bir necha so'zdan tashkil topgan turg'un, barqaror birikmalarni tekshirish paremik birliklar bilan frazeologiyani o'xshash, umumiy tomoni hisoblanadi. Paremlarni to'plash, o'rganish Mahmud Koshg'ariy ("Devonu lug'otit turk") va Gulxaniy ("Zarbulmasal") zamonlaridan to hozirgi kunlargacha davom etib kelmoqda. Endi esa badiiy asarlarda qo'llangan paremlar xxususida so'z yuritimiz va misollarni ko'rib chiqamiz.

Maqol-grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikma. Abdulla Qahhor hikoyalariga epigraf (asar yoki hikoyaning asosiy ma'nosini ochib beruvchi va ¹uning mazmunini ifodalaydigan sitata, ibora, maqol va shu kabilar) qilib berilgan maqollarga to'xtaladigan bo'lsak, "Bemor" hikoyasi epigrafi "osmon yiroq, yer qattiq", O'g'ri hikoyasi epigrafi "otning o'limi- itning bayrami". Bu ikkala hikoyadagi epigraflar asarning mazmunini ochib beruvchi qismidir. "Bemor" hikoyasi epigrafi kambag'alning kasal bo'lishi va ilojisizlikdan ha osmonga chiqib keta oladi, na yernin tagiga kirib keta olishi ifodalangan bo'lsa,² "O'g'ri" hikoyasining epigrafida kimningdur qayg'usi kim uchundir manfaat va "bayram" ligi ifodalangan. Bundan tashqari hikoyada bir nechta maqollar va iboralar ham keltirilgan. Masalan, "Ellikboshi ho'kizni juda naqd qilib qo'ydi – go'yo u ko'chaga chiqsa bas – ho'kiz topiladi. Bu "xudo yallaqagur" shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim-da. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi. Bu odam ellikboshi bo'lish uchun ozmuncha pul sochganmi? Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan bo'ldi. Quruq qoshiq og'iz yirtadi, aminga qancha pul olib borsa bo'ladi? Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz. Chol-kampir kengashib shunday qarorga kelishdi: bu chiqim oxirgi va ho'kizni bo'ynidan bog'lab beradigan chiqim, shuning uchun pulning yuziga qarash aqldan emas". Cholning butun bo'g'inlari bo'shashib ketdi, keyin tutoqishdi, ammo go'rda bir narsa

¹ Qahhor, A. (1985). O'g'ri (hikoya). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

² Qahhor, A. (1985). Bemor (hikoya). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

deya oladimi! “O‘ynashmagil arbob bilan – seni urar har bob bilan”.

G‘afur G‘ulomning “Mening og‘rigina bolam” hikoyasida, “turib yeganga turumtog‘ chidamas” deganlar. “Eh-ha, bu bolalar qachon ulg‘ayadi-yu, qachon o‘zining nonini topib yeydigan bo‘ladi! Chor nochor hayol surasan, kishi”. Ijodkor ham ushbu ibratli paremik birliklarni qo‘shish orqali asarning mazmunini, urush dahshatini va keltirgan salbiy oqibatlarini yana ham to‘liq ochib bergan.³

Ayoqingg‘a tushar har lahza gisu,
Masaldurkim: «Charog‘ tubi qorong‘u».
Tuturmen ko‘zki, ko‘rsam orazingni,
— Ki derlar: «Oqqan ariqqa oqar su(v)».
Yuzungni tuttum ortuq oy-u kundan,
«Kishining ko‘zidur, ore, tarozu».
Ko‘zing qonimdin iymanmas, ajabtur, —
Ki: «Qo‘rqar, qaydakim qon ko‘rsa hindu».
Tilar vaslingni Lutfiy, qil ijobat,
— Ki ayturlar: «Tiloganni — tilogu». (Lutfiy)⁴

Sabr qilsang g‘o‘radin halvo bitar,
Besabrlar o‘z oyog‘idin yitar. (Gulxaniy).⁵

Dodxoning o‘zi bilan birga bu dargohni yerning qa‘riga yuborganday ikkala mushtini uch marta yerga qadadi; keyin “bu dargohni endi yelkamning chuquri ko‘rsin” deganday bir harakat bilan keskin burilib aravaga chiqdi, marhumaning bosh tomoniga o‘tirdi. (“Dahshat”)⁶

Unsin beixtiyor bir qadam orqaga chekindi, lekin shu ondayoq xuddi o‘likdan qo‘rqmasligini birovgacha pisanda qilayotganday, baqirib: “O‘likning joni yo‘q! O‘likning joni yo‘q!” – deb olg‘a intildi, shu yugurganicha chinor ostidagi Onhazratim sag‘anasi oldida to‘xtadi; choynak bilan qumg‘onni oyog‘i ostiga qo‘ydi, paranjichimmatni bir chekkaga tashladi, ichida: “Ko‘pi ketib ozi qoldi”, deb suyundi. Biroq uning suyungani behuda edi. (“Dahshat”)

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, paremik birliklar adabiy matnlarga xalqona ruh, ta’sirchanlik va obrazlilik baxsh etadi. Ular yozuvchining fikrini aniqlashtirish, qahramon xarakterini chuqur ochish hamda milliy madaniyatni yoritishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tahlil qilingan asarlarda paremiyalar

³ G‘ulom, G‘. (1983). Mening o‘g‘rigina bolam (hikoya). Toshkent: Yosh gvardiya nashriyoti.

⁴ Lutfiy. (1991). Devon (g‘azallar to‘plami). Toshkent: Fan nashriyoti.

— G‘azal: Ayoqingga tushar har lahza gisu.

⁵ Gulxaniy, M. (1990). Zarbulmasal. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti.

⁶ Qahhor, A. (1987). Dahshat (hikoya). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti.

matnga badiiy kuch bag'ishlab, uni xalq ruhiyatiga yaqinlashtirgani yaqqol ko'zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qahhor, A. (1985). Bemor (hikoya). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
2. Qahhor, A. (1987). Dahshat (hikoya). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
3. G'ulom, G'. (1983). Mening o'g'rigina bolam (hikoya). Toshkent: Yosh gvardiya nashriyoti.
4. Lutfiy. (1991). Devon (g'azallar to'plami). Toshkent: Fan nashriyoti.— G'azal: Ayoqingga tushar har lahza gisu.
5. Gulxaniy, M. (1990). Zarbulmasal. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.